



G'AFUR G'ULOM XONADONI BIRODARLIK VA MA'RIFAT MASKANI.

Abdujabborova Husnidaxon Bunyodbek qizi.

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19182450>

Аннотация.

В данной статье анализируется роль концепции «дружбы праведных» в творчестве и общественной деятельности народного поэта Узбекистана Гафура Гуляма. На основе воспоминаний освещаются не только идеи межнациональной дружбы в произведениях писателя, но и его искренние человеческие отношения с современниками — такими творцами, как Ойбек и Миртемир. Концепция дружбы исследуется как фактор духовного единения в эпоху глобализации.

Ключевые слова:

Гафур Гулям, Ойбек, Миртемир, литературная дружба, глобализация, гуманизм, «Ты не сирота», литературное наследие.

Abstract.

This article analyzes the role of the concept of "friendship of the righteous" in the creative work and social activities of the National Poet of Uzbekistan, Gafur Gulyam. Based on memoirs, the author highlights not only the ideas of international friendship in the writer's works but also his sincere human relationships with contemporaries—creators such as Oybek and Mirtemir. The concept of friendship is explored as a factor of spiritual unification in the era of globalization.

Keywords:

Gafur Gulyam, Oybek, Mirtemir, literary friendship, globalization, humanism, "You Are Not an Orphan", literary heritage.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri G'afur G'ulom ijodi va ijtimoiy faoliyatida "adillar do'stligi" tushunchasining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Adibning nafaqat asarlaridagi xalqlararo do'stlik g'oyalari, balki o'z zamondoshlari — Oybek, Mirtemir kabi ijodkorlar bilan bo'lgan samimiy insoniy munosabatlari xotiralar asosida yoritilgan. Maqolada do'stlik tushunchasi globallashuv davrida ma'naviy birlashuv omili sifatida tadqiq etiladi.

Tayanch so'zlar:

G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, adabiy do'stlik, globallashuv, insonparvarlik, adabiy meros.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida, dunyoning turli nuqtalarida ziddiyatlar va mafkuraviy qarama-qarshiliklar avj olayotgan bir paytda, xalqlar






o'rtasidagi samimiy munosabatlar va "o'zaro do'stlik va hamkorlik" tushunchasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu shunchaki siyosiy termin emas, balki insoniyatning ma'naviy birlashuvini ta'minlovchi yagona najot yo'lidir. O'zbek adabiyoti klassigi, akademik shoir G'afur G'ulom bundan o'n yillar avval ushbu murakkab mavzuning fundamental ma'naviy asoslarini o'z asarlarida muhrlab ketgan edi. Shoir ijodiga nazar tashlasak, uning do'stlik haqidagi motivlari shunchaki quruq nasihatgo'ylikdan iborat emasligini ko'ramiz. G'afur G'ulom dunyoni yagona bir oila, insoniyatni esa shu oilaning ajralmas a'zolari deb bildi. Uning asarlarida do'stlik — milliy chegaralardan, tili va dinidan qat'i nazar, insonning inson oldidagi muqaddas burchi darajasiga ko'tarildi.

Shu bilan birga, G'afur G'ulom o'zbek adabiyotini yanada rivojlantirish maqsadida yozuvchilar, adiblar, shoirlar bilan o'zaro do'stlik aloqalarni o'rnatib, faoliyatini hamkorlikda olib brogan. Bunga misol sifatida G'afur G'ulomning do'stlari: Oybek, Maqsud Shag'zoda, Zulfiya, Mirtemir, Ramz Bobojonov, O'lmas Umarbekovlarni keltirishimiz mumkin.

“ Men Oybek bilan yoshlikdan , ostona xatlab ko'chaga chiqqa boshlagan kundan o'rtoqman . Mahallamiz bir biriga yaqin edi”, deydi G'afur G'ulom Oybekning 60 yillik yubileyida so'zlagan nutqida. G'afur G'ulom va Oybek yashab katta bo'lgan qishloqlar orasidagi masofa juda ham yaqin bo'lgan. G'afur G'ulom Qo'rg'ontegida Oybek esa Degrez qishlog'ida yashagan.Oybek va G'afur G'ulom yashagan davrlari ziddiyatli, keskinliklarga boy bo'lganligi sababli ular tez ulg'ayishgan, juda erta elning sevimli adiblariga aylanishgan. G'afur G'ulomning qizi Olmos Ahmedova o'zining “ Saylanma ' kitobida shunday eslab yozadi:” 1966-yili yer qimirlagan kuniyoq dadam Oybekni ko'rib kelay dedilar. Dadamga ergashib meni ham olib keting desam yuraqol deb menga yo'q demadi. Uylariga borsak , Oybek domla xovlilarining o'rtasida o'rindiqda ko'chaga qarab o'tirgan ekanlar , dadamni ko'rib hursand bo'lib, ikki qo'llarini ikki yoqqa kerib biz tomonga kela boshladilar. Ikki do'st bir birlarini quchoqlab ancha turishdi. Qarasam ikkalalarini ko'zlarida yosh. Ular gap so'zsiz bir-birlarini tushunar edi. Keyin Oybek domla Zarifa opamga “ choy olib keeling”, degandek imo qilgan edilar dadam ko'rib qolib Muso choyni bafurja bizlarnikida ichamiz , hozir men do'st-birodarlar, qarindoshlarning holidan habar olib yuribman, biror yordam kerak bo'lsa bizdan uyalmanglar, biz ketamiz dedilar dadam. Dadam bilan Oybek domla yana qattiq quchoqlashib hayrlashdilar.

G'afur G'ulomning ho'vlisi doimiy tolibi ilmlarga, yozuvchi ,shoirlarga gavjum bo'lgan. G'afur G'ulomning uyiga tez-tez kelib u kishi bilan davomiy suxbatlar quruvchi yana bir shaxs Mirtemir aka bo'lgan. Shoir Mirtemir bilan G'afur G'ulom





Samarqandda 30-yillarda tanishgan , Farg'ona kanali qurilisha ham uchrashgan ekanlar. Mirtemir G'afur G'ulom bilan ko'p vaqt o'tkazgan, birgalikda O'zbekiston bo'ylab safarlarda birga bo'lgan.

Olmos Ahmedova yoshlik hotiralarini eslab shunday deydi: " kunlardan bir kuni dadam Mirtemir amakini choyga taklif qildilar. Ikkalalari Nekrasov haqida gaplashib, choy icha boshladilar. Men ham o'tirib olib ularning gaplariga quloq soldim. Ular xonada men borligimni sezishmadi ham o'zlarining gaplari bilan band edilar . Men esa bola emasmanmi, ularning e'tiborini o'zinga qaratmoqchi bo'lib :

-Dada men ham Nekrasovning she'rini yod bilaman dedim.

- dadam bo'lsalar endi xonada men borligimni payqab , qaysi she'rini bilasan deb so'radilar.

- междучок снаगतок dedim.

- aytib berchi deyishdi. Men ham uyalmay-netmay maktabda rus tili ustozimiz yodladgan she'rni aytib berdim.

Mirtemir amaki:

-Yaxshi, raahmat , lekin dadang o'zbekchaga tarjima qilganlar-ku , nega o'zbekchasini yodlamading dedilar.

Nima deyishni bilmay,

-menga o'qituvchim aytgani uchun yoladimda, agar o'zbekchasi borligini bilganimda o'zbekchasini o'shani yodlar edim dedim, uyalib.

Dadam bilan Mirtemir aka gapimga rosa kulishdi. Keyin bilishimcha, Mirtemir aka dadam bilan birga Nekrasovni ijodini o'zbek tiliga tarjima qilayotgan ekanlar.

Mirtemir G'afur G'ulom ishongan shaxslardan biri bo'lgan ekan. Shoir Mirtemirning she'rlarida katta falsafiy fikrlar mavjuddir. Shoir Mirtemir va Ga'fur G'ulom bilan birga Bedil, Fuzuliy, Sadiiy, Navoiy va boshqa mashxur shoirlarni sherini o'qib ulardan ijodlariga qo'shimcha ilmlarni o'rganishar edilar.

Xulosa.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, G'afur G'ulomning Oybek bilan so'zsiz anglashilgan qadrdonligi, Mirtemir bilan kechgan ilmiy-ijodiy suhbatlari shuni ko'rsatadiki, haqiqiy do'stlik mushtarak maqsad va ma'naviy yaqinlik poydevoriga quriladi. Ular nafaqat o'zaro hamkorlik qilishgan, balki Navoiy, Bedil va Fuzuliy kabi buyuk mutafakkirlar merosidan bahramand bo'lib, bir-birlarini ruhan boyitganlar. Olmos Ahmedovaning xotiralarini orqali namoyon bo'lgan bu beg'ubor munosabatlar, bugungi globallashuv davrida yosh avlod uchun yuksak insoniylik namunasi bo'lib xizmat qiladi. G'afur G'ulom merosi bizni hamisha





birdamlikka, o'zaro hurmatga va adabiy birodarlik orqali dunyoni anglashga chorlab qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Vikipediya.
- 2.Olmos Ahmedova ning Saylanma kitobi.
- 3.Ziyo uz

